



**XIZMATLAR SOHASI
STATISTIKA BO'LIMI**


**2023- YIL
YANVAR-SENTABR**

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-sentabr)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Qashqadaryo viloyati.	13 893,1	100,0	109,4
Shahar va tumanlar			
Qarshi shahar	3790,1	27,3	112,1
Shahrisabz shahar	706,5	5,1	111,9
G'uzor tumani	573,0	4,2	108,8
Dehqonobod tumani	447,9	3,2	108,3
Qamashi tumani	791,6	5,7	107,1
Qarshi tumani	906,4	6,5	108,7
Koson tumani	895,2	6,4	109,5
Kitob tumani	959,0	6,9	107,5
Mirishkor tumani	603,7	4,3	107,7
Muborak tumani	819,0	5,9	107,7
Nishon tumani	573,8	4,1	108,4
Kasbi tumani	605,0	4,4	107,5
Ko'kdala tumani	247,4	1,8	108,5
Chiroqchi tumani	564,2	4,1	107,8
Shahrisabz tumani	722,7	5,2	107,5
Yakkabog' tumani	687,6	4,9	109,3

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

(2022-2023- yillar yanvar-sentabr)



2023- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3957,0** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,0%** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar

(2023- yil yanvar-sentabr)

Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati.	3957,0	107,0
Qarshi shahar	13011,1	109,7
Shahrisabz shahar	4852,5	110,2
G'uzor tumani	2614,2	106,3
Dehqonobod tumani	2843,7	106,1
Qamashi tumani	2737,4	104,8
Qarshi tumani	3382,3	106,1
Koson tumani	2912,2	106,9
Kitob tumani	3445,8	105,5
Mirishkor tumani	4723,8	105,4
Muborak tumani	8863,5	105,9
Nishon tumani	3494,5	106,0
Kasbi tumani	2879,7	105,2
Ko'kdala tumani	1335,6	104,8
Chiroqchi tumani	2141,0	105,3
Shahrisabz tumani	3108,4	105,8
Yakkabog' tumani	2466,1	107,1


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-sentabr)

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	13 893,1	100,0	109,4
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	691,1	5,0	121,9
Moliyaviy xizmatlar	2 543,4	18,3	120,0
Transport xizmatlari	2 880,6	20,7	104,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 777,1	20,0	104,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	414,9	3,0	107,1
Savdo xizmatlari	4 257,7	30,6	104,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	344,3	2,5	106,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	596,4	4,3	128,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	201,0	1,4	109,1
Ijara xizmatlari	293,0	2,1	97,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	471,5	3,4	105,4
Shaxsiy xizmatlar	493,1	3,6	107,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	175,9	1,3	110,6
Boshqa xizmatlar	530,2	3,8	115,6

Moliyaviy xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)




2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **2023-** yilning mos dav-rida moliyaviy xiz-matlar hajmi **1 663,9** mlrd. so'mga oshib, **2 543,4** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xiz-matlarning ulushi **18,3** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlar-ning o'sish sur'ati **120,0** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-sentabr)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **90,3%** ni tashkil etdi.




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **43,9** foizni yoki **1117,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022-** yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan Nishon tumanida yuqori o'sish sur'ati **123,5%** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi **2880,6** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022- yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **104,3** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **20,7** % ni tashkil etdi.




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **979** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **2,9** % ini tashkil etdi. Ulardan **964** birlik (**98,5** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-sentabr)



- avtotransport xizmatlari
- pochta va kurerlik xizmatlari
- omborxonalar va yordamchi transport xizmatlari

	<i>mlrd. so'mda</i>	<i>% da</i>
Qashqadaryo vil.	2 880,6	104,3
Qarshi sh.	389,3	105,0
Shahrisabz sh.	151,7	104,7
G'uzor	141,0	108,3
Dehqonobod	95,9	106,6
Qamashi	185,4	103,6
Qarshi	284,0	103,6
Koson	229,8	99,6
Kitob	200,1	106,9
Mirishkor	231,1	104,1
Muborak	211,8	87,7
Nishon	155,7	104,7
Kasbi	125,6	103,4
Ko'kdala	53,6	103,8
Chiroqchi	133,9	115,0
Shahrisabz	141,4	108,5
Yakkabog'	150,2	122,1

2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan Qarshi shahrida transport xizmatlari hajmi **58,7** mlrd. so'mga oshib, hisobot davrida **389,3** mlrd. so'mni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **105,0** % ni tashkil etgan.


Muborak tumanida ushbu ko'rsatkich **3,4** mlrd. so'mga kamaydi. Bunda mazkur xizmatlarning o'sish sur'ati **87,7** % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-sentabr** oylarida savdo xizmatlari hajmi **2 130,2** mlrd. soʻmga oshib, **4 257,7** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʼati **104,1 %** ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.




2023- yilning 1- oktabr holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi **30,9 %** yoki **10610** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,7 foizi (10574 birlik)** kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborot-lashtirish xizmatlari hajmi **691,1** mlrd. soʻmdan iborat boʻlib, **oʻtgan yilning mos davriga** nisbatan oʻsish surʼati **121,9** % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga koʻra “Axborot va aloqa” faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **410** birlikka yetdi, shundan **404** birligi (umumiy sonining **98,5** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y. (2023- yil yanvar-sentabr, % da) 2023- y.




Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-sentabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Qashqadaryo vil.	691,1	100,0	121,9
Qarshi sh.	103,3	14,9	143,8
Shahrisabz sh.	37,9	5,5	109,6
Gʻuzor	38,7	5,6	119,4
Dehqonobod	28,7	4,2	119,0
Qamashi	48,2	7,0	116,8
Qarshi	48,5	7,0	121,5
Koson	53,1	7,7	129,0
Kitob	55,8	8,1	120,3
Mirishkor	26,6	3,8	124,2
Muborak	21,1	3,1	129,2
Nishon	31,5	4,6	119,5
Kasbi	35,5	5,1	115,7
Koʻkdala	26,5	3,8	121,7
Chiroqchi	47,9	6,9	119,9
Shahrisabz	38,1	5,5	109,5
Yakkabogʻ	49,6	7,2	113,3

2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan Qarshi shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **32,3** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **103,3** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **14,9%** ni tashkil etdi.

Muborak tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **21,1** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-sentabr)



2023- yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **596,4** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **128,8** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **65,8%** ni tashkil etdi.

“Ta'lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta'lim sohasi xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-sentabr oylaridagi** ulushi **4,3** % ni tashkil etdi. **Ma'lumot uchun:** **2022/2023-** o'quv yili boshidagi oliy ta'lim muassasalari soni **9** birlikni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-sentabr)



2023- yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **201,0** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,4** % ini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.


2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **806** birlikni tashkil etdi, shundan **668** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-sentabr, mlrd. so'mda)

Qashqadaryo vil.	201,0	Kitob	23,5
Qarshi sh.	107,6	Mirishkor	3,7
Shahrisabz sh.	14,3	Muborak	10,3
G'uzor	1,9	Nishon	2,1
Dehqonobod	1,1	Kasbi	3,2
Qamashi	7,5	Ko'kdala	0,8
Qarshi	2,7	Chiroqchi	2,0
Koson	2,5	Shahrisabz	12,0
		Yakkabog'	6,0

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-sentabr)

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **225,2** mlrd. so'mga oshib, **414,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1664** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1654** birligi (umumiy sonining **99,4** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi


(2023- yil yanvar-sentabr)



Yashash bo'yicha xizmatlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-sentabr)




2023- yil yanvar-sentabr oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **344,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,5** % ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,3** % ni tashkil etgan.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ■ O'sish sur'ati, % da

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.


Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-senabr)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **175,9** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,3 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **110,6 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi


(2023- yil yanvar-sentabr, mlrd. so'mda)

Qarshi sh	116,3	Kitob	7,8
Shahrisabz sh	16,8	Muborak	0,1
G'uzor	2,0	Nishon	1,1
Qamashi	8,0	Kasbi	0,9
Qarshi	6,9	Chiroqchi	2,5
Koson	8,6	Shahrisabz	3,8
		Yakkabog'	1,1

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar


(2019-2023-yillar yanvar-sentabr)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 471,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,4 %ni tashkil etgan.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-sentabr)




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)

2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **114,5** mlrd. so'mga oshib, **293,0** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,1** % ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-sentabr** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **82,5** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

